Ishlab chiqarish va ma'muriy binoni yoritish uchun talab etiladigan elektroenergiyani
hisoblash

Ob'ektlar	Um.maydon m.kv	1 m ² uchun yoritish me'yori	Yoritish uchun umum talab Kvt 2*3	Tarmok FIK Ks	Aktiv kuvv. FIK Bilan 4*5	Yildagi yoritilish soatlari	Yoritilish uchun talab etiladigan umumiy El.en
1	2	3	4	5	6	7	8
1.Ishlab chiqarish binolari	324	0,023	7,452	0,95	7,844	1912	14998,13
2. ma'muriy bino							1956,28
jami	64,8	0,015	0,972	0,95	1,023	1912	16954,4
3. navbatchi emirilganlik							1695,44

3. Isitish, namlikni saqlash va havo yuritish uchun talab etilgan elektro energiya miqdori dvigatel elektro energiyasidan 20% olinadi.

$$E_{isit} = E_{dv} * 0,2 = 89864 * 0,2 = 17972,8 \text{ kvt/s}$$

Umumiy elektro-energiyaning qiymatini quyidagi jadvalda hisoblanadi.

Elektroenergiyani harajatlarini hisoblash

№	Elektro energiyaning turlari	e/energiyaga talab	1 kv.t energiya narxi, so`m	Umumiy qiymat so`mda
1	Dvigatel` elektro energiyasi	89864	178,35	16027,24
2	Yoritish elektro energiyasi	16954,4	131,4	2227,8
3	Isitish, namlikni saqlash uchun elektroenergiya	17972,8	131,4	2361,62
4	Navbatchi yoritilganlik	1695,44		222,78
	JAMI			20839,44
5	Ustama xarajatlar			3205,44
6	Umumiy elektro energiya qiymati			24044,88

Ustama harajatlari dvigatel energiyasi harajatlardan 15-20% miqdorda hisoblanadi.

Bajarilgan hisoblar asosida moddiy harajatlar jamlanib quyidagi jadval to`ldiriladi.

Ishlab chiqarishdagi moddiy xarajatlarni jamlovchi jadval

Ishlab chiqarishdagi material xarajatlar tarkibi	Qiymati so'm	% da
I. Bevosita material xarajatlar:		
A. xom-ashyo va materiallar	2497932,5	94,43
B. o`rab joylashtirish harajatlari	49958,65	1,89
V. Texnologiya uchun talab etilgan bug` va yoqilg`i	53000,64	2,0
JAMI: bevosita harajatlari	2600891,79	98,32
II. Bilvosita materiallar xizmati:		
a. arzonbaho inventarning emirilishi	2626,29	0,10
b. binolarni isitish va saqlash BILAN bog`liq materiallar	9136,8	0,35
v. Ishlab chiqarish binosini va jihozlarni saqlash, joriy remont qilish uchun kerak bo`lgan materiallar	8475,84	0,32
g. Umumiy elektroenergiya xarajatlari	24044,88	0,91
JAMI: Bilvosita harajatlari	44283,81	1,68
Xammasi: Moddiy va harajatlari	2645175,6	100%

2-modda. Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi xodimlar ish haqi harajatlari

Bu modda quyidagi harajatlardan tashkil topadi.

1. Ishlab chiqarishdagi asosiy ishchilarning ish haqi fondi: asosiy va qo`shimcha ish haqi $IXF_{as}=244457,98_{ms}$ $IXF_q=149429,84m$.

2. ishlab chiqarish binosini ta`minlovchi ishchilarning ish haqi fondi. Bu qiymat ishlab chiqarish binosining qiymatidan 2-3% miqdorda aniqlanadi.

$IXF_{ta'm}=3903,08 m.s$ $IXF_q=22638,82 m.s$

3. Ishlab chiqarishdagi yordamchi ishchilarning ish haqi fondi asosiy va qo`shimcha $IXF_{yord}=35369,16m.s$ $IXF_q=22638,82 m/c$

4. Sex personalining ish haqi foni: $IXF_{rax}=268679,16 m.s$

Jami: $X_{ish.haqi}=726663,76 m.s$

3-modda. Yagona ijtimoiy to`lov

Bu harajat tarkibiga quyidagilar kiradi:

Yagona ijtimoiy to'lov umumiy mehnat harajatlaridan 25% miqdorda hisoblanadi.

$$X_{\text{yum}} = \frac{\sum \text{ИХФ}_{\text{ж}} * X\%}{100} = \frac{726663,76 * 25}{100} = 181665,94 \text{ m.s}$$

4-modda. Ishlab chiqarishdagi asosiy fondlar amortizatsiyasi

Bu modda quyidagilardan tashkil topadi:

1. Texnologik jihozlar amortizatsiyasi:

$$A_{\text{tex}} = 0,2 * X_{\text{tex}} * j_{\text{ih}} = 87543 * 0,2 = 17508,6 \text{ m.s}$$

2. Bino va inshootlar amortizatsiyasi, bino va inshootlar qiymatidan 5% miqdorda hisoblanadi.

$$A_{\text{bino}} = 0,05 * X_{\text{bino}} = 97556,4 * 0,05 = 4877,82 \text{ m.s}$$

3. Transport vositalari amortizatsiyasi transport vositalari qiymati va amortizatsiya me'yori asosida hisoblanadi, u o'rtacha jihozlarni amortizatsiyadan 2,5/ 3% miqdorda aniqlanadi.

$$A_{\text{bosh}} = A_{\text{tex}} * 0,03 = 17508,6 * 0,03 = 525,26 \text{ m.s}$$

$$A_{\text{um}} = 17508,6 + 4877,82 + 525,26 = 22911,68 \text{ m.s}$$

5-modda. Ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa harajatlar

Ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini saqlash harajatlari
2. Atrof-muhitni muhofaza etish bilan bog'liq harajatlar
3. Mehnatni muhofaza etish va texnika xavfsizligini ta'minlash uchun harajatlar.
4. Ishlab chiqarish sexlarida ilmiy izlanish, loyihalash, rasionalizatsiya bo'yicha harajatlar.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarni saqlash bo'yicha material harajatlari yordamchi ishchilarning ish haqining 60% ini tashkil etadi, shunga ko'ra,

$$X_{\text{as.sak}} = \frac{\text{ёрдამчи, ишчилар ИХФ}}{60} * 100 = \frac{58007,98 * 100}{60} = 96679,96 \text{ m.c}$$

Ushbu harajat quyidagicha taqsimlanadi:

- 20% jihozlarni joriy ta'mirlash – 19335,99 m.s

- 50% o'rtacha ta'mirlash – 48339,98 m.s

- 30% kapital ta'mirlash – 29003,98 m.s

2. Atrof-muhitni saqlash uchun harajatlar Davr harajatlarini 10% ini tashkil etadi.

$$X_{at} = 49235,98 * 0,1 = 4923,6 \text{ m.c}$$

3. Mehnatni muhofaza etish va texnika xavfsizlikni ta'mirlovchi harajatlar o'rtacha korxona ma'lumotlariga ko'ra ro'yxatdagi har bir ishchi uchun ajratilgan normativ qiymat bo'yicha aniqlanadi.

$$X_{t.xavf} = S * B_{ishchi} = 117 * 11,8 = 1380,6 \text{ m.s}$$

4. Ilmiy izlanish, loyihalash harajatlari jihozlar qiymatidan 10%da aniqlanadi.

$$X_{ilm} = KM_{tex} * 0,1 = 87543 * 0,1 = 8754,3 \text{ m.s}$$

№27 jadval

Xisoblar asosida ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa harajatlarning jamlash jadvali tuziladi.

№	Xarajatlar tarkibi	Qiymati, m.so`m
1.	Asosiy fondni joriy ta'mirlash harajatlari	24169,99
2.	Jihozlarni o'rta va kapital ta'mirlash harajatlari	72509,97
3.	Atrof-muhitni muhofaza etish bilan bog'liq harajatlari	4923,6
4.	Mehnatni muhofaza etish va texnika xavfsizligi harajatlari	1380,6
5.	Ilmiy izlanish, loyihalash, rasionalizasiya harajatlari	8754,3
	Jami: ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa harajatlar	111738,46

№28 jadval

Xisoblar asosida yillik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining tannarxi aniqlanadi.

Assortiment nomi- Ayollar ko'ylagi

№	Xarajat moddolari	Qiymati	%
---	-------------------	---------	---

		Yillik mahsulot uchun m.so`m	Bir-birlik uchun, so`m	
1.	Ishlab chiqarish bilan bog`liq moddiy harajatlar	2645175,6	28746,75	82,02
2.	Ish haqi harajatlari	726663,76	4387,35	12,52
3.	Yagona ijtimoiy to`lov	181665,94	1096,84	3,13
4.	Asosiy fondlar amortizasiyasi	22911,68	138,33	0,39
5.	Boshqa harajatlar	111738,46	674,64	1,94
7.	Mahsulot tannarxi	3688155,44	35043,91	100

2. Davr yoki operasion harajatlar

Davr harajatlari tarkibiga ishlab chiqarish bilan bevosita bog`liq bo`lmagan harajatlar kiradi.

Davr harajatlari umumfabrika xodimlarining ish haqini 25% ini tashkil etadi. Bitiruv malaka ishini bajarishda umumfabrika xodimlarining ish haqi asosiy ishchilarning ish haqi miqdorini 4-4,5% ini tashkil etishining hisobga olgan holda aniqlanadi.

$$\text{Davr harajatlari} = \frac{HX_{\text{ouu}}}{25} * 100 = \frac{12308,9 * 100}{25} = 49235,98_{M.C}$$

№29 jadval

Davr xarajatlarini hisoblash

№	Davr harajatlari tarkibi	%	Qiymati
1	umumfabrika personalini saqlash va boshqarish xarajatlari	25	12308,9
2	devonxona va idora xarajatlari	6	2954,16
3	xizmat safari xarajatlari	7	3446,52
4	umumfabrika binosini saqlash xarajatlari	15	7385,4
5	umumfabrika laboratoriyalarini saqlash xarajatlari	12	5908,32
6	korxonani rivojlantirish va boshqarish bilan bog`liq ilmiy-izlanish va tajriba konstruktorlik xarajatlari	8	3938,88
7	yangi turdagi mahsulotlarni va yangi	9	4431,24

	texnologiyani o'zlashtirish va tayyorlash xarajatlari		
8	marketing kuzatuvlar va tadqiqotlar	8	3938,88
9	boshqa umumxo'jalik xarajatlari	10	4923,6
	Jami	100	49235,98
10	Soliqlar		92950,74
	Xammasi		142186,72

Korxonalarda qo'llanilayotgan Nizomga ko'ra "Davr harajatlari" tarkibiga quyidagi soliqlar kiritiladi:

Er solig'i, korxona egallagan maydon va erga bo'lgan soliq miqdori bo'yicha aniqlanadi.

$$S_{er} = \frac{(S_y + S_{m\bar{o}}) * E_{l\kappa\bar{e}M}}{1000} = \frac{(324 + 64,8) * 27500}{100} = 10692_{M.C}$$

Suvga soliq -

$$C_{suv} = \frac{B_{\bar{u}} * E_{l\bar{o}ona}}{1000} = \frac{165627 * 44}{1000} = 7287,58_{M.C}$$

Mulk solig'i – 3,5% asosiy fondlar qiymatidan olinadi.

$$C_m = 213654,6 * 0,035 = 7477,91 \text{ m.s}$$

Respublika yo'l fondiga ajratma –

$$S_{y.f} = (TM_{sh.ul} - QQS) * 1,5\% = (5249474,58 - 749924,94) * 1,5\% = 67493,24 \text{ m.s}$$

Jami soliqlar:

$$S_{jami} = 10692 + 7287,58 + 7477,91 + 67493,24 = 92950,74 \text{ m.s}$$

№30 jadval

Loyihalashtirilayotgan mahsulotni reja kal'kulyasiyasini hisoblash

Xarajatlar tarkibi	Yillik mahsulot xajmi uchun	Bir dona mahsulot uchun
--------------------	-----------------------------	-------------------------

1. Moddiy xarajatlar	2645175,6	28746,75
2. Ish haqi xarajatlari	726663,76	4387,35
3. Yagona ijtimoiy to'lov	181665,94	1096,84
4. Asosiy fondlar amortizatsiyasi	22911,68	138,33
5. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	111738,46	674,64
Jami mahsulot tannarxi	3688155,44	35043,91
6. Rentabellik	22%	22%
7. Foyda	811394,19	7709,66
8. Mahsulotni ulgurji narxi	4499549,64	42753,57
9. Qo'shilgan qiymat solig'i – QQS	749924,94	7125,59
10. Shartnomaga asoslangan ulgurji narx	5249474,58	49879,16
11. Savdo chegirmasi	524947,46	4987,92
12. Chakana narx	5774422,04	54867,08

Moliyaviy natijalarning shakllanishi

Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning aniqlanishi va uning taqsimlanishi bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra, foydaning quyidagi turlari aniqlanadi.:

2. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda

Yalpi foyda mahsulot sotishdan olingan sof daromaddan mahsulot tannarxining ayirmasiga teng:

$$YaF = SD - TX = 4915871,72 - 3688155,44 = 1227716,28 \text{ m.s}$$

Korxona faoliyatidan olinadigan asosiy foyda.

Korxona faoliyatidan olinadigan asosiy foyda mahsulot sotishdan olinadigan yalpi foydadan davr harajatlarini, asosiy faoliyatdan hosil bo'ladigan daromad yoki kamomad orasidagi farq bilan hisoblanadi.

1. Sof daromadni hisoblash

$$SD = TM_{sh.ulg.} - (QQS_{mah} - QQS_{xom\ ashyo}) = 5249474,58 - (749924,94 - 416322,08) = 4915871,72$$

$$AF = YaF - \text{Davr harajat} + \text{Daromad} - \text{kamomad} = 1227716,28 - 142186,72 = 1085529,56 \text{ ms}$$

Umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda.

Umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda korxona faoliyatidan olingan asosiy foyda, dividendlar bo'yicha daromadlar foizi, chet el valyutasi bilan bo'ladigan operatsiyalardan olinadigan daromad yoki kamomat, investisiya va qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholashda hosil bo'ladigan daromad va kamomadlarning algebraik yig'indisidan foizlar bo'yicha harajatlari ayirmasiga teng.

$$UXFF = AF + \text{Dar.foiz} + \text{Chet.val.} + \text{Kim.kog.} + \text{Foiz xar.} = 1085529,56 \text{ m.c}$$

4. Foydaning soliq to'lagunga qadargi miqdori umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda va favquloddagi foyda va zararlar sal'dosiga teng.

$$SSF = UXFF - F.f.z. = 1085529,56 \text{ m.s}$$

5. Korxonaning sof foydasi foydaning soliq to'langunga qadargi miqdoridan foydaga soliq miqdorini va boshqa hech erda hisobga olinmaydigan soliqlarni ayirish bilan

hisoblanadi.

$$SF = SSF - \text{Soliqlar} = 1085529,56 - 86842,36 - 79894,98 = 918792,22 \text{ m.s}$$

Foydadan quyidagi soliqlar to'lanadi:

$$1. \text{ Foydaga soliq } FS = \frac{CC\Phi * X\%}{100} = \frac{1085529,56 * 8}{100} = 86842,36 \text{ m.c}$$

2. Infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq- 8 %

$$S_{inf} = (SSF - FS) * 0,08 = (1085529,56) - 86842,36 * 0,08 = 79894,98 \text{ m.s}$$

Zararsiz ishlash darajasiga etish davrini hisoblash

Korxona faoliyatini boshqarish masalalarini echishda “Xarajatlar- ishlab chiqarish - foyda” munosabatini oqilona tashkil qilish asosiy masala bo'lib hisoblanadi.

Bu munosabat o'zgarmas va o'zgaruvchan harajatlarni ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga qanday bog'liqlikni hisobga olgan holda, tuziladi.

Bu bog'lanishni hisob yo'llari, grafik usulda ko'rsatish mumkin. Bog'lanishning grafik usuli zararsiz ishlab chiqarish nuqtasini aniq ko'rsatadi yoki tekis muvozanat vaziyatini, ya'ni korxonani oladigan daromadi harajatlarni qoplash nuqtasini ko'rsatadi. Grafik usulga ko'ra, sotilgan mahsulot hajmi zararsiz ishlash nuqtasidan past bo'lib, korxona zararga, yuqorida bo'lsa, foydaga ishlaydi.

Ushbu bog'lanishni sxemada ko'rsatish uchun, eng avval zararsiz ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi.


1. Loyihalashtirilayotgan mahsulot uchun zararsiz ishlab chiqarish hajmi quyidagicha aniqlanadi.

$$V_{zar} = \frac{\text{ўзгармас.харажат}}{\text{ўзгармас.харажат}} = \frac{\text{Давр, хар - лари}}{\text{улг.наrx - тх}} = \frac{142186720}{(42753,57 - 35043,91) * 3} = 6148 \text{ dona}$$

2. Zararsiz ishlab chiqarish hajmining tannarxi aniqlanadi

Tovar mahsuloti zararsiz = $6148 \cdot 42753,57 / 1000 = 262826,5 \text{ m.s}$

3. Aniqlangan ko'rsatkichlar yordamida zararsiz ishlab chiqarish darajasini belgilovchi chizmada chiziladi.



Loyihalashtirilayotgan potokning texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qiymati
1	2	3	4
1.	Mahsulot ishlab chiqarish xajmi	dona	168
2.	Ishchilar soni	kishi	19
3.	Ishchining mehnat unumdorligi	Dona/kishi-kun	8,8
4.	Mahsulotning mehnat sarfi	So'm	0,9
5.	Mahsulotning tikish qiymati	so'm	1359,14
6.	Ishchining o'rtacha oylik ish haqi	so'm	361179
7.	Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi	dona	203
8.	Ishlab chiqarish davrining uzunligi	soat	906
9.	Mahsulot tannarxi	so'm	35043,91
10.	Rentabellik	%	22
11.	Foyda		7709,6
12.	Mahsulotni ulgurji narxi	so'm	42753,6
13.	Shartnomaga asoslangan ulgurji narx	so'm	49879,2
14.	Bir so'mlik TM harajatlari	tiyin	81,96

Biznes-rejaning moliyaviy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qiymati
1	2	3	4
1.	Mahsulot ishlab chiqarish xajmi	dona	165627
	Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar soni	kishi	151
2.	Shu jumladan: Ishchilar soni	kishi	114
3.	Xodimlarning yillik ish haqi fondi Jumladan: ishchilarning ish haqi fondi	ming so'm	726663,76 451895,8
4.	Qo'shilgan qiymat solig'i	m.s	749924,94
5.	Sotilgan mahsulotdan olingan sof tushum	m.s	5249474,58
6.	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	m.s	3688155,44
7.	Yalpi foyda	m.s	1227716,28
	Davr xarajatlari	m.s	142186,72
8.	Shu jumladan Soliqlar	m.s	92950,74
9.	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	m.s	1085529,56
	Foydadan olinadigan soliqlar:	m.s	166737,34
10.	- foydaga soliq	m.s	86842,36
	- infratizimni rivojlanish solig'i (SSF-FS) *8%	m.s	79894,98
11.	Sof foyda	m.s.	918792,22
12.	Zararsiz ishlab chiqarish xajmi	dona	6148

MEHNAT
MUHOFAZASI
EKOLOGIY^a
QISMI

Tikuvchilik korxonalarida ishchi va xizmatchilarni barqaror ishlashini ta'minlash yo'llari

Korxona ishining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish ob'ekt va uning elementlarining zaif joylarini tahlil qilish, uning Favqulotdagi vaziyat holatida ishlay olish imkoniyatini baholash va shu asosda ob'ekt ishining ishonchliligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish jarayonidir.

Favqulotdagi vaziyatlarda ob'ekt ishining barqarorligini ta'minlash bo'yicha qator tadbirlar kompleksi ichidan faqat ikkitasini, ya'ni FVlarda ishchi va xizmatchilarning iqtisodiyot ob'ektlarini ta'minlashiga qaratilgan, hamda ikkilamchi omillar tufayli vayronagarchilikni chegaralash yoki yo'qotishga qaratilgan tadbirlarni ko'rib chiqamiz.

Ishchi va xizmatchilarni himoyalash. Iqtisodiyot ob'ektlarini ta'minlash uchun birinchi navbatda odamlarni saqlab qolish kerak. Odamlarsiz har qanday sharoitda ham hech qanday korxona ishlay olmaydi. Buning uchun avvaldan portlovchi, zaharli va radioaktiv moddalar ishlatiladigan korxonalarda va umuman iqtisodiyot uchun zarur ob'ektlarda pana joylar quriladi, zaharli moddalar bilan zaharlanganda ishchi va xizmatchilar uchun ish tartibi ishlab chiqiladi, shikastlanish o'choqlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq ishlarni bajarishga o'tiladi. Ishchi, xizmatchilar va aholini xabardor qilish va doimo tayyor bo'lish sistemasi tashkil qilinadi.

Avariyalarda ikkilamchi omillardan shikastlanishni bartaraf qilish yoki chegaralash. Ikkilamchi omillarga yong'inlar, portlash, inshootlarning qulab tushishi, zaharli, radioaktiv va boshqa zararli moddalarning sizib chiqishi va sh.o'. kiradi.

Oddiy sharoitda korxonada avariyasiz va xavfsiz ishlashni ta'minlaydigan qator tadbirlar o'tkaziladi. Lekin FVda bu tadbirlar etarlicha bo'lmay qoladi, shuning uchun avariya holatlarida ikkilamchi omillar ta'sirini bartaraf qilish yoki chegaralash bo'yicha qo'shimcha tadbirlar belgilanadi. Bunday tadbirlarga:

- o'ta zaharli moddalar zahirasini kamaytirish;
- portlash va yong'in xavfi mavjud moddalarni kamaytirish va himoyalangan omborlarda saqlash;
- zaharli, yonuvchan, agressiv suyuqliklarning to'kilib ketishidan

saqlovchi moslamalar qo'llash;

- zaharli ximikatlarni, engil alanganuvchi suyuqliklar va yog'och omborlarini shamol guldastasini inobatga olib qurish;
- inshootlar va binolarni yong'inga qarshi oraliqlarini va o't o'chiruvchi mashina yo'llarini hisobga olgan holda qurish;
- XXI da yong'inga qarshi suv havzalari va hajmlarini qurish;
- o't o'chirish vositalari zahirasi to'plash;
- texnologik kommunikatsiya va elektr ta'minoti simlarini erostiga ko'mish va h.k.

Iqtisodiyot ob'ektlari ishining barqarorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ishchi kuchi bilan ta'minlangan va ularning himoyalanganligi;
- Favqulotdagi vaziyatlarda zararlovchi omillarning injener-texnik

Kompleksning barqarorligiga ta'siri;

- ta'minotning barqarorligi;
- ikkilamchi omillar zararlarini kamaytirish yoki cheklash;
- boshqaruvning barqarorligi;
- Favqulotdagi vaziyatga oldindan tayyorgarlik ko'rib kelish.

Xar qanday darajadagi sanoat sistemasining ish barqarorligini oshirish va ishdan chiqqan korxonani qisqa muddat ichida tiklash uchun, oldindan injener-texnik, tashkiliy-iqtisodiy kompleks masalalarini ishlab chiqish va amalga oshirib qo'yish kerak.

FM injener-texnik chora-tadbirlarni loyihalash Davlat standartlari, sanitariya me'yorlari va qurilish me'yor va qoidalari (QMQ) asosida olib boriladi.

Sanitariya me'yorlari talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kategoriyalashtirilgan shahar va ob'ektlar
- kategoriyalashtirilgan shaharga yaqin joylashgan ob'ektlar
- Respublikaning radioaktiv moddalaridan himoya qilinadigan hamma hududi
- Qisman va to'la svetomaskirovka qilingan aholi punktlari

Iqtisodiyot ob'ektlarini joylashtirish, loyihalash va qurilishiga bo'lgan talablar:

1. yangi kategoriyalashtirilgan ob`ektlarni suv toshmaydigan va buzilmaydigan joylarga qurish;
2. katta neft bazalarini va neft omborlarini buzilmaydigan zonalarga qurish;
3. oziq-ovqatlar ishlab chiqarish ob`ektlarini shahar tashqarisiga qurish
4. shahar tashqarisidagi zonalarni rivojlantirish
(sihatgohlar, dam olish maskanlari va h.k.- evakuasiya qilish oson.);
5. shahar qurilayotganda turar joy rayonlariga bo`linishi kerak
(har bir rayon kamida 250 ga erga ega bo`lishi kerak);
6. korxona elektr sistemasini loyihalash va qurishga bo`lgan talablar:
 - a) kamida ikkita liniyadan energiya olib kelishi kerak;
 - b) shu ikkita liniya bir-biri bilan halqa shaklida tutashtirilishi kerak;
 - v) korxona elektr energiyasini avtonom ravishda ishlab chiqaradigan uskunaga ega bo`lishi kerak;

Barqarorlikni oshirish usul va yo`llari

1. Korxona ishchi va xizmatchilari hamda ularning oilalarini himoya qilish uchun hamma chora-tadbirlarni qo`llash;
2. Injener- texnik komplekslarning barqarorligini oshirish uchun hamma Tadbirlarni amalga oshirish;
3. Korxona hududidagi ob`ektlarni rasional joylashtirish
4. Korxonani barqaror boshqarilishini ta`minlash;
5. Ishdan chiqqan korxonani tezda tiklash uchun butun chora-tadbirlarni amalga oshirish;

MUSTAQIL

ISh

Ipak matodan ayollar xalati ishlab chiqaruvchi tikuv potogida foyda va rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

Korxona xo'jalik faoliyatining yakuniy ijlbiy moliyaviy natijasi bo'lib foyda xizmat qiladi. Foyda ko'rsatkichining mazmuni shu bilan ifodalanadiki, u bir tomondan, korxona ishining sifatiga bog'liq bo'lib, resurslardan yanada samarali foydalanishdan korxona ishchilarining iqtisodiy manfaatdorligini oshiradi, chunki foyda-korxonaning ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi, ikkinchi tarafdin foyda davlat byudjetining shakllanishining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Foyda miqdorining oshishida korxonaning o'zi ham davlat ham manfaatdor. Foydaning oshishiga nafaqat korxona jamoasining mehnat unumdorligini oshirish natijasida, balki boshqa omillar evaziga ham erishish mumkin. Shuning uchun, har bir korxonada doimiy tarzda foyda shakllanishini, taqsimlanishini va ishlatilishini tahlil qilib borish zarur.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida iqtisodiy dastaklardan keng ko'lamda foydalanishni taqozo qiladi. Ularga foyda, sof daromad, narx, rentabellik darajasi, soliq, kredit va boshqalar kiradi. Ularning ichida foyda ko'rsatkichi korxona faoliyatining boshlovchi sifat ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Xar bir korxona iqtisodiyotining unumli rivojlanishi uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmini harajatlar va foyda bilan o'zaro nisbatini o'rganish lozim. Bu nisbat korxona faoliyatining yakuniy natijalarining muhim ko'rsatkichlarini sababli-natijaviy o'zaro aloqa majmuini tadqiqot qilish uchun, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash uchun tahlil qilinadi.

Tahlil jarayonida quyidagi asosiy masalalari hal qilinadi:

- korxona sof harajatlarining qoplanishini ta'minlaydigan mahsulot sotilish hajmini hisoblash;
- korxonaga zarur bo'lgan foyda miqdorini boshqa o'zaro teng sharoitlarda ta'minlovchi mahsulot sotilish hajmini hisoblash;
- korxona bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun sotilish hajmini

baholash va zararsiz mahsulot ishlab chiqarish zonasini aniqlash;

Xarajat- foyda munosabatini o'rganish muayyan aktivlik

Kengligida amalga oshiriladi, ya'ni ushbu korxonaga haqiqatda xos bo'lgan ishlab chiqarishning minimal va maksimal hajmi, uning miqyosida harajat va foyda bilan o'zaro munosabati o'rganiladi.

Ish aktivligi ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar ishlatilishi mumkin: naturada, tikuv mahsulotlari texnologik mehnat sarfi, qiymat ko'rsatkichlarida, nisbiy ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffisientida va boshqalar.

Tikuvchilik korxonasida foydaning tahlilini amalga oshirish uchun eng avvalo korxonadagi moliyaviy ko'rsatkichlarning shakllanishini ko'rib chiqamiz. (Jadval №)

Jadvalni tahlili ko'rsatadiki, IAB "Anvar" bo'yicha yalpi daromad 133628 ming so'mga oshgan, mos ravishda qo'shilgan qiymat solig'i 22271 m.so'mga, mahsulot tannarxi 7313,7 m.so'mga oshgan. Sotish harajatlari korxonada keskin oshgan, jami 40044 m.so'mga. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan natijalar bo'yicha foyda 12361 m.so'mga, zarar 16340 m.so'mga oshgan. Zarar foydaga nisbatan 3979 m. so'mga yuqori. Shuning uchun soliq solinguncha foyda 3979 m.so'mga, sof foyda 4221 m.so'mga kamaygan.

Yalpi foydaning o'zgarishiga ko'p omillar ta'sir o'z ta'sirini o'tkazadi.

Foydaning o'sishiga olib keladigan tannarxning pasayishidan tashqari omillar;

-sotilgan mahsulot hajmining o'sishi;

-sotilgan mahsulot strukturasining o'zgarishi;

-sotiladigan mahsulot narxlarining oshishi;

-qimmatli qog'ozlardan va qo'shma korxonalardagi ulushli ishtirokidan qo'shimcha daromadlar;

-debitor qarzlarning kelib tushishi to'g'ridan-to'g'ri foyda miqdorini oshishiga olib keladi.

Foydaning shakllanish jarayoni ikki bosqichni o'z ichiga oladi: qo'shimcha

mahsulot yaratilishi va uni pul shakliga o'tkazilishi. Amalda korxona foydani mahsulotni sotish jarayonida oladi, lekin yangi qiymat faqat ishlab chiqarish tarmog'ida tarkib topganligi sababli, bu erda vujudga kelgan foyda bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligi va foydaning o'sish rezervlari tahlil etiladi.

33 javdval

IAB “Anvar” bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishdan tushgan
foydaning tahlili. (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Xisobot		O'zgarish	
	2012 y.	2013 y.	Qiymat	%
1	2	3	4	5
1.Tovar mahsuloti amaldagi ulgurji narxlarda	789979	973612	+183633	123,2
2.mahsulot tannarxi	723667	796804	+73137	110,1
3.tovar mahsuloti ishlab chiqarishdan olingan foyda.	69787	176808	+107021	+2,5 m

Jadvalning tahlili ko'rsatadiki, ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti miqdori 183633 ming so'mga oshib, 2012 yilga nisbatan 2013 yilda 123,2 % ga oshgan. Mahsulot tannarxi esa 110,1%ga oshgan. Demak, tovar mahsuloti hajmi mahsulot tannarxiga nisbatan o'sishi 12,1 foizga ko'p bo'lgan. Bu esa o'z navbatida tovar mahsuloti ishlab chiqarishdan olingan foydani 2,5 martaga yoki 107021 ming so'mga oshgan. Bu mahsulot hajmining oshishi naturada mahsulot hajmi o'sishi bilan bog'liq bo'lmasa, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning narxini o'sishi bilan bog'liq bo'ladi.

Sotilgan mahsulot strukturasi o'zgarishi, har xil mahsulotlarning rentabellik darajasi har xil bo'lganligi sababli foydaga ta'sir ko'rsatadi.

Sotiladigan mahsulot umumiy hajmida (rejaga nisbatan) rentabelligi yuqori mahsulotlarning salmog'i oshishi bilan sotishdan tushgan foyda oshadi va aksincha.

Tahliliy ish nazariyasi va amaliyotida bu omilning ta'sirini hisoblashning bir necha usullari mavjud:

-reja bo'yicha haqiqiy sotilgan mahsulot hajmiga sotishdan tushgan foyda yig'indisini, sotilgan mahsulot hajmi bo'yicha rejaning bajarilishi koeffisientiga o'zgargan rejaviy foydani solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

-rejada belgilangan foydani haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan aniqlangan qismidan foydani reja bo'yicha belgilangan miqdorini ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

Reja bilan solishtirilganda sotilgan mahsulot tannarxining kamayishi yoki o'sishi natijasida sotishdan tushgan foyda o'sadi yoki kamayadi. Bu omilni hisoblash uchun haqiqiy tannarx bilan haqiqiy sotilgan mahsulotning rejaviy tannarxi solishtiriladi. Shunday usul bilan olingan yig'indida yuqorida joy olgan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i sotib olinadigan ayrim tayyor mahsulotlar, energiyaga tariflar narxlarining rejaga nisbatan oshishi o'z aksini topgan. Ushbu omil korxonaga bog'liq emasligini hisobga olgan holda, uni erkin omil deb belgilash mumkin. Bundan tashqari erkin omil deb, vositachilik harajatlarini ham belgilash mumkin.

№34 jadval

IAB "Anvar" korxonasi bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlarni shakllanishini tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Xisobot		O'zgarishi (+/-)	
		2012 y.	2013 y.	Abs.	Nisb.
1.	Mahsulot sotishdan tushgan tushum	11158,14	1249442	+133628	+11,9
2.	Qo'shilgan qiymat solig'i	185969	208240	+22271	+11,9
3.	Aksizlar	-	-	-	-
4.	Tushumdan ajratiladigan harajat va ajratmalar	49615	57638	+8023	+16,2
5.	Sotishdan tushgan sof tushum	880230	983564	+103334	+11,7
6.	Sotilgan mahsulot tannarxi	723667	796804	+73137	+10,1
7.	Mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda	156563	186760	+30197	+19,3

3-jadvaldan ko`rinib turibdiki, mahsulot sotishdan tushgan tushum 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 11,9 foizga, o`z navbatida qo`shilgan qiymat solig`i ham 11,9 foizga oshdi. Korxona bo`yicha ishlab chiqariladigan mahsulotga aksiz solig`i solinmaydi. Tushumdan ajratiladigan harajat va ajratmalar 8023 ming so`mga yoki 16,2 foizga oshgan, ya`ni harajat va ajratmalar ko`paygan yoki ularni qiymati oshishi hisobiga oshgan. Sotishdan tushgan sof tushum 103334 ming so`mga yoki 11,7 foizga oshgan. Sotilgan mahsulot tannarxi 10,1 foizga oshgan, ammo sotilgan mahsulotdan tushgan tushumga nisbatan 1,8 foizga kam. Shuni hisobiga mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda 30197 ming so`mga yoki 19,3 foizga oshdi.

Mahsulotni sotishdan tushgan foydaga sotilgan mahsulot hajmining va narxlarining o`sishi yoki ishlab chiqarish hajmi oshib, sotilmagan mahsulot qoldiqlarining qisqarishi ijobiy ta`sir ko`rsatadi, sotilgan mahsulot tannarxining o`sishi esa salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Foydaning shakllanishini nazorat qilish maqsadida operativ tahlil amalga oshiriladi. Ma`lumot manbai bo`lib “Sotilgan mahsulot rejasining bajarilishini operativ nazorat qilish jurnali” xizmat qiladi yoki personal komp`yuterga kirgizilgan bo`lsa, mashinogrammlar yordamida amalga oshiriladi.

Bu erda har kuni o`sib borish yakuni bilan oy va yil boshidan qo`shilgan qiymat solig`isiz va daromaddan boshqa ajratmalarsiz sotilgan mahsulot hajmi yig`indisi o`z aksini topgan. Mahsulotni sotishdan tushgan foydani sotilgan mahsulotning o`rtacha rentabelligi va sotilgan mahsulot hajmi to`g`risidagi ma`lumotlar asosida aniqlash mumkin. Balans foydaning qolgan elementlari bo`yicha operativ nazorat “Foyda va zarar” hisobining analitik hisoblari asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari narxlarning o`zgarishlari va boshqa omillar hisobiga mahsulot tannarxining siljishi ham hisobga olinadi.

Boshqa sotishdan va realizasiya bo`lmaydigan operatsiyalarning moliyaviy natijalari ham balans va sof foydaga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Boshqa realizasiyaning moliyaviy natijalarining tahlili, bu operatsiyalarning bajarilishini qonuniyligi va realizasiya qilinayotgan mol-mulk baholash to`g`riligi, realizasiya va foyda bo`yicha

harajatlarni aniqlashning to'g'riligi nuqtai nazaridan bu operatsiyalarni ko'rib chiqishni talab etadi. Foyda bir qator hisobot davrlari uchun taqqoslanadi. Realizatsiya bo'lmaydigan natijalar tahlilini ularning har bir turi bo'yicha olib borishi zarur. Bunda shuni aniqlash kerakki, bu natijalar korxona hisobiga to'g'ri o'tkazilganligi, xususan foyda va ziyonlar hisobiga; yig'indini ziyonga hisoblab o'tkazilganda amaldagi yo'riqnomalarni buzishga yo'l qo'yilmaganligini, realizatsiya bo'lmaydigan ziyonlar korxonada bitimlar intizomi va mol-mulkni asrash yaxshi yo'lga qo'yilganligi natijasida yuzaga kelganmi.

Jarima va peniyalardan realizatsiyadan tashqari daromad va harajatlar ba'zi hollarda korxonada hisob ishlari yomon yo'lga qo'yilganligi natijasida yuzaga keladi. Realizatsiyaga bog'liq bo'lmagan daromad va harajatlar qator hisobot davrlari uchun dinamikada o'rganiladi. Ularning sabablari puxta o'rganilib, jarimaga yo'l qo'ymaslik chora tadbirlari belgilanadi. Jarimadan tashqari foydaning kamayishiga yana noishlab chiqarish harajatlari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ularni tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlarni o'rganib chiqish maqsadga muvofiq: brak natijasidagi yo'qotishlar, mahsulot tannarxiga o'tkaziladigan noishlab chiqarish harajatlari va boshqalar.

Tahlil qilinayotgan korxona bo'yicha realizatsiyadan tashqari natijalar quyidagi keltirilgan ma'lumotlar bilan xarakterlanadi:

№35 jadval

IAB "Anvar" bo'yicha sotishdan tashqari natijalarning tahlili

(ming,so'm)

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		O'zgarishi +/-	
	daromad	harajat	daromad	harajat	daromad	harajat
1	2	3	4	5	6	7
1. Qimmatli qog'ozlardan va qo'shma korxonalardagi ulushli ishtiroki-dan	247		156		-91	

daromad						
2. To'langan va olingan jarima, peniyalar		3618				-1000
2.1 Etkazib berish sharoitlarini buzganlik uchun		2116		918		-1198
2.2 Etkazib berilmagan mahsulot uchun		1502		1700		+198
3. hisobot yilida aniqlangan o'tgan yilning foyda, ziyonlari	50735	20121	63014	37389	+12279	+17268
4. qarzlar va debitor qarzlar						
5. Boshqa korxona va tashkilotlardan olingan moliyaviy yordam, maxsus jamg'armalarga ajratmalar	116	54	289	126	+173	+72
Jami:	51098	23793	63459	40133	+12361	+16340

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sotishdan tashqari natijalar bo'yicha qimmatbaho qog'ozlardan va qo'shma korxonalaridagi ulushli ishtirokidan daromad 91 m.so`mga oshgan bo'lsa, to'langan va olingan jarima va peniyalar 1000 ming so`mga kamaygan. Xisobot yilida aniqlangan o'tgan yilning foydasi 12279 ming so`mga oshgan bo'lsa, ziyonlar 17268 ming so`mga oshgan, ya'ni ziyon foydaga nisbatan 4989 ming so`mga ortiq.

Umuman olganda, sotishdan tashqari natijalarda daromad 12361 ming so`mni, harajat 16340 ming so`mni tashkil etib, harajat daromadga nisbatan +3979 ming so`mga ortiq.

Sof foydani shakllanishida soliqlar muhim o`rin egallaydi. Soliqlarning to`g`ri hisoblanishi, o`z vaqtida byudjetga o`tkazilishi, belgilangan soliq stavkalari miqdori sof foydani oshishi yoki kamayishiga sabab bo`ladi. Foydani taqsimlash byudjetga o`tkaziladigan soliqlar va yig`imlar to`g`risidagi qonunga muvofiq, moliya Vazirligining uslubiy ko`rsatmalariga va korxona ustaviga asoslangan holda amalga oshiriladi. Korxonalar byudjet, banklar, ta`minotchilar va iste`molchilar, yuqori turuvchi va boshqa tashkilotlar oldidagi majburiyatlarini bajarilishini ta`minlashlari, ilm-fan va texnikani rivojlantirish harajatlarini, texnik qayta qurollanishini, qayta ta`minlash va foydalanishdagi ishlab chiqarishlarni kengaytirish harajatlarini moliyaviy qoplanishlarini ta`minlashlari kerak; ishlab topilgan mablag`lar hisobidan moddiy rag`batlantirish va ijtimoiy rivojlanishi masalalarini hal etishlari kerak.

Korxona bo`yicha foydadan to`lanadigan soliqlar tahlilini ko`rib chiqamiz:
(Jadval 28)

№36 jadval

IAB “Anvar” bo`yicha foydadan to`lanadigan soliqlar tahlili

(ming, so`m)

Ko`rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		O`zgarishi (+ -)		
	qiymati	%	qiymati	%	qiymati	%	Nisbiy ulush bo`y. %
1	2	3	4	5	6	7	8
1. yalpi foyda	156563	100	186760	100	+30197	+19,3	-
2. mulk solig`i	1410	0,90	1394	0,75	-16	-1,1	-0,15
3. er solig`i	16475	10,52	20416	10,93	+3941	+23,9	+0,41
4. suvga to`lov	92	0,06	144	0,08	+52	+56,5	+0,02
5. maktab fondiga to`lov	5199,8	3,32	6968,04	3,73	+1768,24	+34,0	+0,41
6. Respublika yo`l fondiga	10104	6,45	8816	4,72	-1288	-12,7	-1,73

ajratma							
7. infratuzilmani rivojlan-tirish	371	0,24	442	0,23	+71	+19,1	-0,01
8. foyda solig'i	1484	0,95	1263	0,68	-221	-14,9	-0,27
9. Sof foyda	16567	10,58	12346	6,61	-4221	-25,5	-3,97

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, korxona bo'yicha mulk solig'i 2012 yilda yalpi foydaga nisbatan 0,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 0,75 foizni tashkil etib, nisbiy ulushlarda 0,15% ga yoki 16 ming so'mga kamaygan. Bunga texnologik jihozlar amortizasiya hisobiga kamaygani va soliq stavkasi miqdorini o'zgarmagani sabab bo'lgan. Er solig'ini yalpi foydadagi ulushi 10, 52% ni 2012 yilda tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 10,93% ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,9 % ga yoki 3941 ming so'mga oshgan. Bunga er solig'ini stavkasini zonalar bo'yicha oshgani sabab bo'ldi. Suvga to'lov ham 1 kubm.suv qiymatining oshishi hisobiga 52 ming so'mga yoki 56,5 %ga oshgan. Maktab fondiga to'lov mahsulot tannarxiga nisbatan foizlarda olinganligi sababli xom-ashyo narxlarining o'sishi oqibatida 1768,24 ming so'mga yoki 34% ga oshgan. Respublika yo'l fondiga ajratma soliq solinguncha foydadan qo'shilgan qiymat solig'i ayirib tashlanib 1,5 % olingani uchun soliq solinguncha foydani kamayishi hisobiga 12,7% ga yoki 1288 ming so'mga kam to'langan. Foyda solig'i bir tomondan soliq stavkalarini 9% dan 8%gacha tushgani sababli kamaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan harajatlarni umumxo'jalik faoliyatida ko'payganligi sababli 14,9% ga yoki 221 ming so'mga kamaygan. Shuni hisobiga sof foyda ham 25,5% ga yoki 4221 ming so'mga kamaygan.

№37 jadval

IAB "Anvar"da olingan foydani taqsimlanishi

(ming, so'm)

Ko'rsatkichlar			O'zgarishi +/-	
	2012 yil	2013 yil	Absol.	Nisb.

1	2	3	4	5
1. Byudjetga to'lovlar	213522	280663	+67141	+31,44
2. Zahiradagi kapitalga to'lovlar	1365	1166	-199	-14,6
3. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga oid ajratmalar	897	567	-330	-36,8
4. Iste'mol jamg'armasi	112	86	-26	-23,2
5. Xayriya maqsadlariga	48	63	+15	+31,2
6. Dividendlarga	25940	22160	-3780	-14,6

Demak, jadvalni tahlili ko'rsatadiki, byudjetga foydadan to'lovlar 67141 m.so'mga yoki 31,4 %ga oshgan, zahiradagi kapitalga to'lovlar asosiy fondlar qiymati kamayganligi sababli 14,6% ga kamaygan, eng salbiy holat korxonaning hozirgi davriga ishlab chiqarishni rivojlantirishga oid ajratmalar 36,8 % ga, iste'mol jamg'armasiga 23,2 %ga, dividendlarga 14,6 %ga kamaygan.

Xulosa va takliflar

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida iqtisodiy dastaklardan keng ko'lamda foydalanishni taqozo qiladi. Ularga foyda, sof daromad, narx, rentabellik darajasi, soliq, kredit va boshqalar kiradi. Ularning ichida foyda ko'rsatkichi korxona faoliyatining boshlovchi sifat ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Xar bir korxona iqtisodiyotining unumli rivojlanishi uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmini harajatlar va foyda bilan o'zaro nisbatini o'rganish lozim. Bu nisbat korxona faoliyatining yakuniy natijalarining muhim ko'rsatkichlarini sababli-natijaviy o'zaro aloqa majmuini tadqiqot qilish uchun, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash uchun tahlil qilinadi.

Korxona bo'yicha mulk solig'i 2012 yilda yalpi foydaga nisbatan 0,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 0,75 foizni tashkil etib, nisbiy ulushlarda 0,15% ga yoki 16 ming so'mga kamaygan. Bunga texnologik jihozlar amortizasiya hisobiga kamaygani va soliq stavkasi miqdorini o'zgarmagani sabab bo'lgan. Er solig'ini yalpi foydadagi ulushi 10, 52% ni 2012 yilda tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 10,93% ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,9 % ga yoki 3941 ming so'mga oshgan. Bunga er solig'ini stavkasini zonalar bo'yicha oshgani sabab bo'ldi. Suvga to'lov ham 1 kubm.suv qiymatining oshishi hisobiga 52 ming so'mga yoki 56,5 %ga oshgan. Maktab fondiga to'lov mahsulot tannarxiga nisbatan foizlarda olinganligi sababli xom-ashyo narxlarining o'sishi oqibatida 1768,24 ming so'mga yoki 34% ga oshgan. Respublika yo'l fondiga ajratma soliq solinguncha foydadan qo'shilgan qiymat solig'i ayirib tashlanib 1,5 % olingani uchun soliq solinguncha foydani kamayishi hisobiga 12,7% ga yoki 1288 ming so'mga kam to'langan. Foyda solig'i bir tomondan soliq stavkalarini 9% dan 8%gacha tushgani sababli kamaygan bo'lsa, ikkinchi tomondan harajatlarni umumxo'jalik faoliyatida ko'payganligi sababli 14,9% ga yoki 221 ming so'mga kamaygan. Shuni hisobiga sof foyda ham 25,5% ga yoki 4221 ming so'mga kamaygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. “O'zbekiston Respublikasining qonuni. “Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish” to'g'risida 14 dekabr 2007 yil O'RQ-127-son

2. “Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 25 may 2005 yil.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar

Mahkamasining Qarorlari.

3. “O'zbekiston Respublikasining qarori. “Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibini takomillashtirish” to'g'risida 27 aprel, 2007 yil PQ-127-son

4. Karimov I.A. 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarining Ustav fondlarini 400,0 ming AQSh dollariga etkazish bo'yicha” Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasining qarori. “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2009 yil, 15 may, PQ-1112-son

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish haqida 2000 yil, 25 may, 70-II-son

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari.

7. I.A. Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari” Toshkent, O'zbekiston – 2009.

8. I.A. Karimov «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» T., O'zbekiston

– 2011 y.

9. I.A.Karimov “2014 yil yuqori o`sinh sur`atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o`zini oqlagan islohatlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo`ladi” Yil yakunlariga bag`ishlangan ma`ruza. Xalq so`zi. 18.01.2014 yil.

IV. Darsliklar va o`quv qo`llanmalar:

10. Abdullaev A. Biznes-reja. Toshkent, Moliya, 2008 yil

11. Abdullaev A. Kichik biznesni boshqarish., Toshkent, Moliya, 2009 yil

12. Bekmurodov A.Sh., Fafurov U.V. “O`zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo`lida”. T.: Iqtisodiyot, 2008.-126 b.

13. Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Fafurov U.V. “O`zbekiston – iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo`lida”. Ekspres-prospekt.T.:Iqtisodiyot, 2009.-52 b.

14. Xodiev B.Yu., Berkinov B.B. Korporativ boshqaruv: O`quv qo`llanma. –T.: «ADIB», 2010. -190 b.

15. Xashimov A.A. Korporativ boshqaruv shaklidagi tuzilmalarning rivojlanish istiqbolari.-Toshkent: Fan, 2003.-112b.

16. M.B. Xamidullin “Korporativ strategiyalarni moliyalashtirish usullari va mexanizmlari” T.2007 y № 5-6. 4b.

17. Avdokushin E.F. “Mejdunarodnie ekonomicheski otnosheniya”. Uchebnik.-M.: YuNITI-DANA, 2010, 68b.

18. Maxmudov E.X. “Korxona iqtisodiyoti”. O`quv qo`llanma – T.:O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2008y.

19. Vaxabov A. “Moliyaviy boshqaruv tahlili”. Darslik , Toshkent-O`zbekiston - 2008.

20. Saviskaya G.V. “Analiz xozyaystvennoy deyatel`nosti predpriyatiy” –M.: INFRA-M, 2001.

21. Sharifxo`jaev M., Abdullaev Yo. “Menejment”. Darslik-Toshkent: O`zbekiston, 2002.

VI. Davriy nashrlar, statistik to`plamlar va hisobotlar.

22. “O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnali, 2011-2013 y.
23. “Bozor-pul-kredit” jurnali, 2011-2013 yil sonlari.
24. “Xalk so`zi” gazetasi 2011-2013 yil sonlari.
25. IAB “Anvar” ning 2011-2013 yil xisobotlari.

VII. Internet saytlari.

25. www.gov.uz
26. www.nalog.ru.
27. www.mf.uz